

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Tog‘-kon sanoati va geologiya
vaziri o‘rinbosari

_____ **A.A. Kadirxodjayev**

2023-yil “ _____ ” _____

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining
markaziy apparatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari
bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi markaziy apparatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomning amal qilishi:

ko‘rib chiqish tartibi ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga;

davlat organlarining, tashkilotlarining, shuningdek ular tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Qonunga muvofiq ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ariza - huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;

taklif - davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat;

shikoyat - buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat;

anonim murojaat - jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma‘lumotlar ko‘rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan murojaat;

murojaatning dublikati - aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxsning murojaati nusxasi;

takroriy murojaat - avvalgi murojaatlar bo'yicha qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilingan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytda ko'rib chiqishning qonun hujjatlarida belgilangan muddati tugagan bo'lsa, avvalgi murojaat o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi haqida xabar qilingan, aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan murojaat;

elektron murojaat – belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og'zaki murojaatlar bundan mustasno;

ommaviy qabul- davlat organi rahbarining yoki bu borada vakolat berilgan mansabdor shaxsning jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarida murojaatlarni qabul qilishga doir harakati;

video-konferensiya-aloqa-uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning rel vaqt rejimida audio va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv hamkorlik qilishi;

davlat ishtirokidagi tashkilot-ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkiloti.

sayyor qabul – Kon-geologiya vazirligi va uning quyi tashkilotlari rahbarlarining tasdiqlangan jadval asosida joylarga chiqqan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarining vakillarini qabul qilishi bilan bog'liq tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar majmui.

4. Murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda ariza, taklif va shikoyat shaklida berilishi mumkin.

Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat'i nazar, bir xil ahamiyatga ega.

Kon-geologiya vazirligining "Ishonch telefoni"ga kelib tushgan murojaatlar og'zaki murojaat sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda qayd etiladi, ro'yxatga olinadi va ko'rib chiqiladi.

Kon-geologiya vazirligining rasmiy veb-sayti orqali yoki rasmiy elektron pochta manziliga kelib tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida qayd etiladi va ushbu Nizomda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Internet tarmog'idagi O'zbekiston respublikasi Hukumat portali (keyingi o'rinlarda Hukumat portali deb ataladi) orqali kelib tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida qayd etiladi va Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 3-iyundagi 188-son qarori bilan tasdiqlangan Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali to'g'risidagi nizom talablari hisobga olingan holda ushbu Nizomda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan kelib tushgan murojaatlar Qonunda hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi.

Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

2-bob. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari

5. Qonunga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarga Kon-geologiya vazirligiga, uning quyi tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat etish huquqi kafolatlanada.

Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

Murojaat etish huquqining amalga oshirilishi boshqa jismoniy va yuridik shaxsning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy mafaatlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi kerak.

Qonunga muvofiq, xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Kon-geologiya vazirligiga, uning korxonalariga va ularning mansabdor shaxslariga ushbu Qonunga muvofiq murojaat etish huquqiga ega.

6. Murojaat etish huquqidan foydalanayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga, shuningdek, yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'limlari, uning quyi tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari murojaatlarni ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ularning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi uchun choralar ko'rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishi shart.

8. Murojaatlar Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'limlari, uning quyi tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi shart, 6-bobda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

9. Murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning roziligisiz, shuningdek, davlat sirini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning va agar bu jismoniy va yuridik shaxsning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo'lsa, boshqa axborotning Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'limlari boshliqlari, quyi korxonalar xodimlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy va yuridik shaxs to'g'risidagi, murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir biron-bir ma'lumot oshkor etilmasligi kerak.

10. Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ruyobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'limlari boshliqlari, quyi korxonalar xodimlari va ularning mansabdor shaxslariga murojaat etganligi, shuningdek, murojaatlaridao'z fikrini

bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta'qib etish man etiladi.

3-bob. Murojaatlarni berish va ularni ko'rib chiqish tartibi

11. Murojaatlar ularda qo'yilgan masalalarni hal etish o'z vakolati doirasiga kiradigan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga bevosita yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga beriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatni mustaqil ravishda berishga, shuningdek, bu boradagi vakolatni o'z vakiliga berishga yoxud murojaatni pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda yuborishga haqli.

Voyaga yetmaganlar, muomilaga layoqatsiz va muomila layoqati cheklangan shaxslarning manfaatlarini ko'zlab murojaatlar ularning qonuniy vakillari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

12. Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida Kon-geologiya vazirligining, uning quyi korxonasining aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek, murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Murojaatlarda murojaat etuvchilarning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va fakslariraqamlari ko'rsatilishi mumkin.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

13. Murojaatga u bo'yicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning nusxalari, shuningdek, uni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarilova qilinishi mumkin, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi, murojaat etuvchi ularni qaytarish haqida yozma ariza bergan holatlar bundan mustasno.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar murojaat taalluqliligi bo'yicha Kon-geologiya vazirligiga, uningquyi korxonasiga yoki ularning mansabdor shaxsiga yuborilganda murojaatga ilova qilinishi kerak.

14. Murojaat pochta aloqasi vositasi orqali konvertda kelib tushganda konvertda murojaat va unga ilovalar mavjudligi tekshiriladi.

Konvertda murojaat mavjud bo'lmasa yoki u shikastlangan bo'lsa, shuningdek, murojaatda ko'rsatilgan ilovalar mavjud bo'lmasa, dalolatnoma tuzilib, uning bir nusxasi murojaat etuvchiga konvertda ko'rsatilgan manzil bo'yicha yuboriladi.

Kelib tushgan murojaatlar konvertlari murojaat etuvchining manzilini, murojaat jo'natilgan va olingan vaqtini aniqlash uchun saqlab qolinishi mumkin.

15. Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi

bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak.

16. Murojaatlarni berish muddatlari, qoida tariqasida belgilanmaydi.

Ayrim hollarda, agar Kon-geologiya vazirligining, uning quyi korxonasining yoki ularning mansabdor shaxslarining murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha imkoniyatlariga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida amalga oshirish va himoya qilishni ta'minlash zaruratiga bog'liq bo'lsa, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra murojaatni berish muddati belgilanishi mumkin.

Bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga ariza yoki shikoyat jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamdv qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) sodir etilganigi yoxud qaror qabul qilinganligi ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uzog'i bilan bir yildan kechiktirmay beriladi.

Ariza yoki shikoyat berishning uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati arizani yoki shikoyatni ko'rib chiquvchi Kon-geologiya vazirligi, uning quyi tashkiloti yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tiklanadi.

17. Jismoniy va yuridik shaxslar o'z murojaatini ko'rib chiqmaganuga qadar va ko'rib chiqilayotgan paytda murojaat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo'li bilan chaqirib olish huquqiga ega. Bunday ariza tushgan taqdirda murojaatni ko'rib chiqish to'xtatiladi va uch kun mobaynida murojaat Kon-geologiya vazirligining xati bilan murojaat qiluvchiga qaytariladi.

Murojaatni chaqirib olish to'g'risidagi ariza Kon-geologiya vazirligi. Uning quyi korxonalari tomonidan qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan chora – tadbirlar ko'rilishini istisno etmaydi.

**4-bob. Kon-geologiya vazirligida, uning quyi tashkilotlarida
murojaatlar bilan ishlashni tashkillashtirish**

18. Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'linmalarida, uning quyi tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash ushbu Nizomga I-ilovaga muvofiq sxemaga binoan amalga oshiriladi.

19. Tushgan murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish uchun yuborish, shuningdek murojaatlarning hisobotini yuritish va ko'rib chiqilishini nazorat qilish maqsadida Kon-geologiya vazirligi markaziy apparatida, uning quyi tashkilotlarida belgilangan umumiy shtatdagi xodimlar soni doirasida murojaatlar bilan ishlash bo'yicha alohida bo'lim (keyingi o'rinlarda murojaatlar bilan ishlash bo'limi deb ataladi) tashkil etiladi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi Kon-geologiya vazirligiga tushgan murojaatlar hajmidan, xodimlar soni va ish hajmidan kelib chiqqan holda alohida bo'lim, bo'linma yoki guruh shaklida tashkil etilishi mumkin.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi murojaatlarning ko'rib chiqilishini nazorat masalalarida bevosita Kon-geologiya vazirligi rahbariyati, korxona rahbariga bo'ysunadi.

20. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'limi:

tarkibiy bo'linmalar tomonidan murojaatlar ko'rib chiqilishini doimiy nazorat qiladi

va uning monitoringini olib boradi, ularning o'z vaqtida va zarur tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlash chora- tadbirlarini ko'radi.

murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari va tarkibiy bo'linmalar tomonidan buzilishi to'g'risida Kon-geologiya vazirligi rahbariyatini, korxona rahbarini darhol xabardor qiladi.

Monitoring natijalari bo'yicha har oyda Kon-geologiya vazirligi rahbariyatiga, quyi tashkilotlar rahbariga murojaatlar ko'rib chiqilishining holati to'g'risidagi axborotni, zaruriyat bo'lganda, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygan Kon-geologiya vazirligi tashkiliy bo'linmalari, quyi korxonalar xodimlariga nisbatan javobgarlik choralari ko'rish yuzasidan tegishli takliflar bilan birgalikda taqdim etadi.

21. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'limning xodimlariga quyidagi qo'shimcha talablar qo'yiladi:

o'rta-maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bo'lish;

kamida uch yillik ish staji bo'lishi;

Kon-geologiya vazirligi xodimlari, quyi korxonalar faoliyati, funksiyalariga oid majburiyatlari to'g'risida xabardor bo'lish;

yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lish;

kirishimlilik;

zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni bilish.

Bo'lim xodimlari murojaatlar bilan ishlash bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirishda iltifotli, qat'iyatli, e'tiborli bo'lishi kerak, murojaat qiluvchilarga nisbatan xushmuomilali, vazmin va e'tiborli, shaxsning sha'nini kamsitmasligi, unga nisbatan mehribon bo'lishi shart.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tashqi ko'rinishi bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning Kon-geologiya vazirligiga, uningquyi korxonalariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi, umumiy qabul qilingan ish tartibiga rioya etishi vazmin va intizomli bo'lishi kerak.

22. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonalari murojaatlar bilan ish olib boruvchi o'z xodimlarini o'qitadi va uch yilda kamida bir marta ularning malakasini oshiradi.

23. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonalari ushbu Nizomning talablariga ko'ra, murojaatlar bilan ishlashda elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etishi mumkin.

Kon-geologiya vazirligi va uning quyi korxonalarida murojaatlar bilan ishlash:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi va Hukumat portali orqali kelib tushgan murojaatlar elektron shaklda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlardagi (tumaga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar yozma yoki elektron shaklda olib boriladi.

24. Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqatni tashkil etish, murojaatlarning ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, shuningdek, murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

maqsadida Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonalari va ularning mansabdor shaxslari o'z virtual qabulxonalarin tashkil etishi mumkin.

Virtual qabulxonalar Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonalari yoki ularning qaysi mansabdor shaxslari tomonidan tuzilgan bo'lsa o'shalar nomidan faoliyat ko'rsatadi.

25. Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida ko'rsatilgan masalani har tomonlama va o'z vaqtida hal qilish maqsadida, murojaatda ko'rsatilgan masalani ko'rib chiqish (hal qilish) bir nechta davlat organlari tashkilotlarining vakolatiga kirsa, murojaatni ko'rib chiquvchi davlat organi va tashkiloti boshqa davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxsning murojaatini kollegial eshitishni o'tkazish uchun murojaat qilishga haqli.

5-bob. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari

26. Yozma va elektron (agar davlat organlari, tashkilotlari va mahalliy ijro etuvchi organlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar bilan ishlashda elektron hujjat aylanish dasturi joriy etilmagan bo'lsa, qog'ozga bosib chiqarilgan) murojaatlar murojaatlarni ro'yxatga olish jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritish, ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha hisobga olish kartochkasini to'ldirish va murojaatning birinchi sahifasi quyi o'ng qismida ro'yxatga olish shtampini qo'yish yo'li bilan murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'limida ro'yxatga olinadi.

Murojaatlar yozma yoki elektron tarzda ro'yxatga olinishi mumkin.

Murojaatlarni ro'yxatga olish jurnalida murojaatning tartib raqami, murojaat qilgan jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasiningismi), uning yashash joyi, yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan joyi, murojaatning qisqacha mazmuni, murojaat qilingan sana, dublikat yoki murojaatlarning takroriyligi, nazoratga olinganligi to'g'risidagi belgi, ijrochi etib belgilangan vazirlik tashkiliy bo'linmasi, korxona tarkibiy bo'linmasining nomi, sana ko'rsatilgan holda ijro etish to'g'risidagi belgi ko'rsatiladi.

Qayd etish shtampida Kon-geologiya vazirligining, korxonaning rasmiy nomi (umumqabul qilingan qisqartirilgan nom yoki qisqartma ko'rsatilishi mumkin), murojaatning kelib tushgan sanasi va qayd raqami ko'rsatiladi.

Murojaatlarning tartib raqamlari har yil boshidan yangidan boshlanadi,

27. Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari Kon-geologiya vazirligiga, uning quyi korxonasiga og'zaki murojaat etishganda ular tomonidan taqdim qilingan yozma murojaatlar hamda boshqa materiallar qabul qilinishi va ushbu Nizomning 26-bandiga muvofiq to'ldirilgan hisobga olish kartochkasiga ilova qilinishi kerak.

Ro'yxatga olingan murojaatlar kelib tushgan paytidan boshlab bir ish kunidan kechikmay Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonasi rahbariga, uning o'rinbosariga yoki tarkibiy bo'linma rahbariga kiritiladi, u ma'sul tarkibiy bo'linmani (xodimni) belgilagan holda murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha rezolutsiyani (topshiriqnoma) qo'yadi.

Rezolutsiya (topshiriqnoma) qo'yilgan paytdan boshlab bir ish kun mobaynida murojaatdar bilan ishlash bo'yicha bo'lim murojaatni ijro etuvchi sifatida belgilangan tarkibiy bo'linmaga (xodimga) imzo qo'ydirgan holda beradi. Bunda ijrochi etib belgilangan tarkibiy bo'linma (xodim) tomonidan ijro etish to'g'risidagi belgi qo'yiladi.

28. Kon-geologiya vazirligiga, uning quyi korxonasiga kelib tushgan murojaatlar vazirlikning, uning quyi korxonasining ish yurituviga qabul qilinishi, bo'ysunish tartibida vazirlikning, uning quyi korxonasining quyi bo'linmasiga (tashkilotiga) (keyingi o'rinda quyi organ deb ataladi) yuborilishi yoki tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organiga, tashkilotiga yuborilishi mumkin.

29. Quyi organ tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan murojaatlar unga kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddatdan kechiktirmay xat bilan yoki Kon-geologiya vazirligi, uning quyi korxonasining yoki tarkibiy bo'linmaning rahbari tomonidan imzolangan topshiriq bilan birga yuborilishi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar berilishi kerak.

30. Agar murojaatda bir nechta tarkibiy bo'linmaga tegishli masalalar mavjud bo'lsa, ularning barchasi murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha ijro etuvchilar etib belgilanadi. Ijro etuvchilar orasida birinchi bo'lib ko'rsatilgan tarkibiy bo'limga boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda murojaat ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

31. Murojaatni to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqish uchun qo'shimcha ma'lumotlar, ma'lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo'lgan taqdirda, mazkur murojaatni ko'rib chiqayotgan Kon-geologiya vazirligining tarkibiy bo'limi, quyi organ yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchidan, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan qo'shimcha axborotni so'rab olishi mumkin. Agar axborot davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'ch ichiga olgan bo'lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari o'zlaridan so'ralayotgan axborotni o'n ichida taqdim etishi shart.

32. Agar murojaatni ko'rib chiqish jarayonida murojaatning dublikati kelib tushsa, ushbu murojaat avval tushgan murojaat bilan birgalikda ko'rib chiqiladi hamda natijasi bo'yicha yagona javob beriladi.

Agar murojaatning dublikati murojaat ko'rib chiqilgandan va javob yuborilgandan keyin kelib tushsa, bu haqda Kon-geologiya vazirligi, quyi organ yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchini yozma tartibda xabardor qiladi.

33. Agar murojaatda o'rta qo'yilgan masalalar xo'jalik yurituchi subyektlar faoliyatiga daxldor bo'lsa, ularning vakillari murojatni ko'rib chiqishda ishtirk etish uchun Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi tomonidan o'z vakolatlari doirasida jalb etiladi.

Zarur hollarda murojaatlarni ko'rib chiqish uchun Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi tomonidan tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

34. Qo'yilgan masalalarni hal etish o'zining vakolati doirasiga kirmaydigan Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organiga kelib tushgan murojaatlar besh kun muddatdan kechiktirmay Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organining rahbari tomonidan imzolangan xat bilan tegishli organlarga yuboriladi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi.

Murojaatni ko'rib chiqish uchun asossiz ravishda boshqa davlat organlariga yoki tashkilotlariga o'tkazish yoxud qarorlari yoki harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan organlarga yoki mansabdor shaxslarga yuborish taqiqlanadi.

Agar murojaatlarda ularni tegishli organlarga yuborish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, u holda ular besh muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan murojaat qiluvchiga qaytariladi.

35. Murojaatniko'rib chiqayotgan Kon-geologiya vazirligi. Uning quyi organi yoki ularning mansabdor shaxslari o'z tashabbusiga ko'ra yoxud murojaat etuvchining iltimosiga ko'ra uni eshitishni tashkil etishi mumkin.

Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchiga murojaatda ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirish va murojaat bo'yicha qo'shimcha axborot taqdim etish imkoniyatini beradi.

Zarur hollarda murojaat etuvchini eshitishga ekspertlarni, mutaxasislarni va manfaatdor tashkilotlarning vakillarini jalb etishi mumkin.

36. Agar murojaatda joyning o'zida o'rganishni talab etuvchi holat bayon qilingan bo'lsa, shuninglek, boshqa zarur hollarda murojaatni ko'rib chiquvchi Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi murojaatni joyning o'zida ko'rib chiqishni ta'minlashi mumkin. Murojaatni joyning o'zida ko'rib chiqish Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining rahbarining topshirig'i yoki uning roziligi bilan amalga oshiriladi.

37. Murojaatni murojaat qilgan yoki boshqa shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqishning imkoniyati bo'lmaganda, ular Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilishi mumkin. Chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmagan taqdirda Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining mansabdor shaxsi murojaatni uning ishtirokisiz ko'rib chiqish mumkin emasligi to'g'risida javob yuboradi.

38. Murojaatlar bilan ishlash muddatlari ular Kon-geologiya vazirligiga, uning quyi organiga kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tegishli muddatning oxirgi kuni dam olish va bayram kunlariga to'g'ri kelsa, navbatdagi ish kuni muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi.

Elektron murojaatlar ish vaqti tamom bulgandan keyin taqdirda navbatdagi ish kunida ro'yxatga olinadi.

Murojaatni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining rahbariga yoki bunga vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxsiga ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan og'zki murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi. Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek, uni ko'rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko'rsatiladi.

39. Ariza va shikoyat masalani mazmuni bo'yicha hal etishi shart bo'lgan Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organiga yoki ularningmansabdor shaxslariga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun mobaynida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi rahbari tomonidan, istisno tariqasida, ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

40. Taklif Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kun muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

41. Ayrim hollarda Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi rahbari yoki uning o'rinbosari murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishi mumkin.

42. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi, bu haqda darhol yozma yoxud elektron shaklda murojaat qiluvchiga xabar beriladi.

Murojaatni qoniqtirmaslik to'g'risidagi qarorni:

respublika ahamiyatiga molik tashkilotda, Kon-geologiya vazirligida-rahbar, uning o'rinbosarlari qabul qiladi.

Murojaatga javob xatida murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlangan aniq asoalar (zaruriyatga qarab qonun hujjatlari normalariga havolalar qilingan holda) bo'lishi kerak.

43. Murojaatga javob xati Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi yoki uning tarkibiy bo'linmasi rahbari tomonidan imzolanadi.

Murojaatlarga javob xati, mumkin qadar, murojaat etilgan tilda bayon qilinadi.

44. Jismoniy va yuridik shaxslar jamoa bo'lib murojaat qilgan taqdirda ularning murojaatlari Qonun talablari va mazkur Nizomga muvofiq ko'rib chiqiladi. Bunda murojaatga javob murojaat qilganlarning ro'yxatida birinchi bo'lib ko'rsatilgan shaxsga yoki, ularning talabiga ko'ra, boshqa shaxsga yuboriladi.

45. Jismoniy va yuridik shaxsning iltimosiga ko'ra murojaatni ko'rib chiqqan Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi va ularning mansabdor shaxslari murojaatga javobni uning mazmunini o'zgartirmasdan tushuntirishi, shuningdek yo'l qo'yilgan xatolar va arifmetik xatolarni o'z tashabbusiga ko'ra yoki murojaat qiluvchining iltimosiga ko'ra, murojaatga javobning mazmuniga daxl qilmagan holda tuzatishi shart.

Murojaat qiluvchining murojaatga javobni tushuntirish va uni tuzatish to'g'risidagi iltimosi u kelib tushgan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqiladi.

46. Murojaat, unda ko'tarilgan barcha masalalar Qonun talablariga muvofiq ko'rib chiqilgan va murojaat qiluvchiga tegishli javob yuborilgan taqdirda ko'rib chiqilgan hisoblanadi.

Murojaat qiluvchiga javob yuborilgan kun murojaatni ko'rib chiqish tugallangan kun hisoblanadi, bu haqda murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim murojaatlarni ro'yxatga olish jurnaliga va hisobga olish kartochkasiga belgi qo'yadi.

47. Yuqori davlat organining nazoratida turgan murojaatlar bo'yicha murojaatni ko'rib chiqqan Kon-geologiya vazirligi murojaat qiluvchiga yuborilgan javob xatining nusxasini iloova qilgan holda murojaatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yuqori davlat organiga yozma shaklda xabar beradi.

48. Ko'rib chiqilgan murojaatlarni va ular bilan bog'liq materiallarni saqlash murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'limda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Murojaatlarni ko‘rmay qoldirish va ko‘rib chiqishni tugatish

49. Quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi:

anonim murojaatlar;

Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda;

Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar;

50. Murojaatni anonim deb e‘tirof etish murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bo‘lim rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Murojaat anonim deb e‘tirof etilganda bu haqda xulosa tuziladi. Xulosada murojaatni anonim deb e‘tirof etish uchun asosalar ko‘rsatiladi. Murojaatni anonim deb e‘tirof etish to‘g‘risidagi xulosa murojaatlar bilan ishlovchi bo‘lim rahbari yoki tarkibiy bo‘linma rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organlarining ishonch telefonlari, “tezkor aloqa”ga tushgan murojaatlar Qonunda nazarda tutilgan tartibda anonim deb e‘tirof etilishi mumkin.

Anonim deb e‘tirof etilgan murojaatlar xulosa tasdiqlangan paytdan boshlab nazoratdan yoki ijrodan olinadi va ko‘rib chiqilmaydi.

51. Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar kelib tushganda, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bo‘lim yoki tarkibiy bo‘linma ularning vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjudligini tekshiradi.

Agar murojaatda jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo‘lmasa, bu haqda murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bo‘limning rahbari tomonidan tasdiqlanadigan xulosa tuziladi.

Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud emasligi to‘g‘risidagi xulosa tasdiqlangan paytdan boshlab ushbu murojaat ko‘rib chiqilmaydi, bu haqda murojaat qiluvchi yozma ravishda xabardor qilinadi.

52. Murojaatlar ko‘rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organining rahbari yoki vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar ko‘rmay qoldirilganligi to‘g‘risida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi.

53. Murojaatlarni ko‘rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo‘lsa, ilgari murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to‘la-tukis materiallari mavjud bo‘lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo‘lsa;

agar murojaat qiluvchi o‘z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida iltimos qilgan bo‘lsa;

yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli

chaqirishning imkoni yoʻqligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz koʻrib chiqish imkoniyati boʻlmaganda;

murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz koʻrib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli, Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi yoki ularning mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda;

agar murojaat qiluvchi shaxs vafot etgandan soʻng murojaatni koʻrib chiqish huquqiy vorislikka yoʻl qoʻymasa.

54. Murojaatni koʻrib chiqishni tugatish toʻgʻrisidagi qarorni Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organining rahbari yoki vakolat berilgan mansabdor shaxsi qabul qiladi.

Takroriy murojaatni koʻrib chiqish ushbu Nioarning 53-bandi ikkinchi xatboshisiga muvofiq tugatilganda, murojaat qiluvchi takroriy murojaatning asosizligi va ushbu masala yuzasidan u bilan yozishmalar tugatilishi toʻgʻrisida yozma ravishda xabardor qilinadi. Yozishmalar olib borish tugatilgan murojaat qiluvchidan takroriy murojaat kelib tushgan taqdirda, bunday murojaatni koʻrib chiqish murojaat qiluvchini bu haqda xabardor qilmasdan tugatiladi.

Murojaatni koʻrib chiqish uni chaqirib olish toʻgʻrisidagi ariza boʻyicha tugatilganda murojaat qiluvchiga Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organining yoki ular mansabdor shaxsining xati bilan birga uch kunda qaytariladi. Murojaatni chaqirib olish toʻgʻrisidagi ariza qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar koʻridishini istisno etmaydi.

Murojaat qiluvchi chaqirilgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining kelmay qolganligi sababli murojaatni koʻrib chiqishni tugatish toʻgʻrisida tegishli tartibda xabardor qilinadi.

7-bob. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil qilish

55. Kon-geologiya vazirligida, uning quyi organlarida, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi.

Kon-geologiya vazirligi rahbarlari yoki bu borada vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullari, shunindek ommaviy qabullar tashkil etilishi mumkin.

Barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda sayor qabul qilish jadvallari (yillik yoki yarim yillik) ishlab chiqilib, mos ravishta yuqori turuvchi davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

56. Kon-geologiya vazirligida, uning quyi organida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy, sayyor va ommaviy qabul qilish belgilangan kun va soatlarda, qabul qilish jadvaliga muvofiq oʻtkaziladi.

Shaxsiy, sayyor va ommaviy qabul qilish jadvali va uni oʻtkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish toʻgʻrisidagi axborot, qabul qilish tartibi ularni davlat organlari,

tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish, shuningdek, ularning ma'muriy binosida hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkaziladi.

Sayyor va ommaviy qabul o'tkaziladigan viloyat, shahar va tumanlardagi tegishli davlat organlari, tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan bir hafta oldin aholi bilan targ'ibot ishlari amalga oshiriladi.

57. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish uchun alohida xona ajratiladi.

Shaxsiy qabul davomida Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organi rahbarining qaroriga ko'ra va murojaat etuvchiga bu haqda xabar bergan holda maxsus texnika vositalari (audio-videoyozuv, shuningdek fotosuratga olish) qo'llanishi mumkin.

58. Og'zaki murojaatlar bilan kelgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'limning rahbari yoxud boshqa ma'sul xolim, shuningdek Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organi tarkibiy bo'linmalarining (keyingi o'rinlarda tarkibiy bo'linma deb ataladi), tashkilotning rahbarlari yoxud boshqa ma'sul xodimlari tomonidan qabul qilinadi.

Murojaat qiluvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar tekshirilgandan keyin ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha hisobga olish kartochkasi to'ldiriladi. Hisobga olish kartochkasi og'zaki murojaat sifatida ro'yxatga olinadi.

59. Jismoniy shaxs og'zaki murojaat etayotganda o'z shaxsni tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxsning vakili esa o'z vakolatlarini tasdiqlaydigan va o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi kerak, ommaviy qabul vaqtida kelib tushgan murojaatlar bundan mustasno.

Og'zaki murojaatlar real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organlarining ishonch, tezkor aloqa telefonlari orqali va video-konferens-aloqa vositasida ham berilishi mumkin.

60. Murojaatlar ishlash bo'yicha bo'linma qabulga kelgan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni, shuningdek jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish bilan bog'liq ishlarni tashkil etadi.

61. Kon-geologiya vazirligida, uning quyi organida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'lim yoki tegishli tarkibiy bo'linma xodimlari ishtirokida amalga oshiriladi.\

62. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiluvchi rahbar yoki vakolatli shaxsning ko'rsatmasi bo'yicha Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining boshqa xodimlari ham qabul jarayoniga jalb etilishi mumkin.

63. Agar jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy, sayyor va ommaviy qabul qilish paytida murojaatda bayon qilgan masalalarni hal etish Kon-geologiya vazirligining, uningquyi organi yoki ularning mansabdor shaxsining vakolatiga kirmasligi aniqlangan taqdirda, ularga murojaatda bayon qilgan masalalarni hal etish uchun qaysi organga yoki tashkilotga murojaat qilish tushuntiriladi. Bunda jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining talabi bilan bu haqda yozma shaklda javob beriladi.

64. Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarini sayyor qabullari, shuningdek ommaviy qabullar, zarur bo'lgan hollarda, qabul qilish jadvallaridan tashqari o'tkazilishi mumkin. Ommaviy qabul hovlilarga (kvartiralarga), boshqa binolarga va joylarga birma-bir kirib chiqish orqali ham o'tkazilishi mumkin.

65. Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakllarining sayyor va ommaviy qabullar vaqtida berilgan og'zaki murojaatlar ushbu Nizomning 58-bandiga muvofiq rasmiylashtiriladi va ro'yxatga olinadi hmada belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Joylarda uchrashuvlarni o'tkazish mavzusiga mamlakatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda ustivor bo'lgan fuqarolik jamiyatini va xalq bilan ochiq muloqatni rivojlantirish, inson huquq va manfaatlarini, davlat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati va hududlarni kompleks rivojlantirishning istiqbolli rejalari to'g'risida aholiga yetkazish, joylardagi tizimli muammolarni aniqlash va ularni yechimlarini topish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni ko'rib chiqish kabi dolzarb masalalar ktrtilishi lozim.

Sayyor va ommaviy qabulni o'tkazish natijalari bo'yicha tegishli bayon to'ldiriladi, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

66. Ommaviy qabullar vaqtida Kon-geologiya vazirligining, uning quyi organining rahbariga yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxsiga kelib tushgan va joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarga yozma javob yoki elektron shakldagi javob talab etilmaydi.

8-bob. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini videokonferensaloqa vositasida qabul qilishni tashkil etish

67. Jismoniy shaxs va yuridik shaxslarning vakili Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining rahbariga yoxud ularning mansabdor shaxslariga video-konferens-aloqa vositasida murojaat berishi, oldindan tasdiqlangan maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda video-konferens-aloqa jadval orqali amalga oshiriladi.

68. Buning uchun murojaat etuvchi video-konferens-aloqa o'rnatilgan tegishli Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organiga belgilangan tartibdagi talabnoma bilan murojaat qiladi. Ariza elektron shaklda berilishi mumkin.

Talabnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

jismoniy shaxs uchun – murojaat etuvchining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar;

yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar;

elektron pochta manzili;

aloqa telefoni va/yoki faksining raqami;

video-konferens-aloqa o'tkazishga qulay sana va vaqt;

murojaat tili;

murojaatning qisqacha mazmuni.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

69. Videokonferensaloqa orqali kelib tushgan murojaatlar kelib tushgan paytidan boshlab bir ish kunidan kechikmay murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan ro‘yxatga olinishi va Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organining rahbariga kiritilishi kerak.

70. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining rahbari, talabnomani ko‘rib chiqib, video-konferens-aloqa orqali ko‘rib chiqish yoki ko‘rib chiqishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Qabul qilingan qaror, video-konferens-aloqa orqali murojaatni ko‘rib chiqish vaqti va joyi haqida Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi jismoniy va yuridik shaxslarni belgilangan tartibda ogohlantiradi.

71. Video-konferens-aloqa orqali murojaatni qabul qilish jadvali o‘zgargan taqdirda, murojaatlar bilan ishlash bo‘limi oldindan (elektron pochta, aloqa telefon va/yoki faks raqamlari, pochta va boshqalar) orqali ogohlantirishi kerak.

72. Video-konferens-aloqa orqali kelib tushgan murojaatlar og‘zaki murojaat sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda qayd etiladi, ro‘yxatga olinadi va ko‘rib chiqiladi.

9-bob. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari

73. Murojaatlar Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan ko‘rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

murojaatni ko‘rib chiqishning borishi to‘g‘risida axborot olish;

vajlarni shaxsan bayon etish va tushuntirishlar berish;

murojaatni tekshirish materiallari va uni ko‘rib chiqish natijalari bilan tanishish;

qo‘shimcha materiallar taqdim etish yoki bunday materiallarni boshqa organlardan talab qilib olish to‘g‘risida iltimos qilish;

advokat yordamidan foydalanish;

murojaatni to‘xtatish to‘g‘risida yoxud murojaatga javobni tushuntirish va (yoki) uni tuzatish to‘g‘risida iltimos qilish;

o‘z murojaatini u ko‘rib chiqilguniga qadar va o‘rib chiqilayotgan paytda murojaat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo‘li bilan chaqirib olish.

murojaatni qabul qilishni yoki ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan bo‘ysunuv tartibda yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish.

Jismoniy va yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiqboshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

74. Jismoniy va yuridik shaxslar, Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan murojaatlarni ko‘rib chiqishda o‘zlarining xatti – harakatlari bilan boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini, shuningde. Jamiyat davlat manfaatlarini buzmasligi kerak.

10-bob. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda Kon-geologiya vazirligi va uning quyi organlari va ularning mansabdor shaxslarining huquq va erkinliklari

75. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi va ularning mansabdor shaxslari quyidagi huquqlarga ega:

murojaatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

murojaat qiluvchi yoki uning vakilini ular yo‘qligida murojaatni ko‘rib chiqish mumkin bo‘lmaganda yoxud murojaatni eshitish uchun chaqirish;

bila turib yolg‘on ma‘lumotlar ko‘rsatilgan murojaatni tekshirish sababli yetkazilgan harakatlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risida sudga murojaat qilish;

Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organi va ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

76. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi va ularning mansabdor shaxslari:

murojaatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

murojaat qiluvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyatva davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, ta‘minlash;

murojaat etuvchiga ko‘rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko‘rib chiqilgandan so‘ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi, ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal qilingan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;

murojaat yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan, agar jismoniy va yuridik shaxs ushbu qarorga rozi bo‘lmasa, shikoyat berish tartibini tushuntirish;

murojaatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra qabul qiligan qarorning ijrosini nazorat qilish;

qonunga xilof harakatlarni (harakatsizlikni) bartaraf etish yuzasidan darhol chora-tadbirlar ko‘rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabalar va sharoitlarni o‘z vakolatlari doirasida aniqlash;

jismoniy shaxs, uningvakili, ularningoila a‘zolari, yuridik shaxs, uningvakili va yuridikshaxs vakilining oila a‘zolariularning murojaatlari sababli ta‘qib etilishini belgilangan tartibda bartaraf etishi;

agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamdv qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma‘naviy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararining o‘rnini qoplash yoki ma‘naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralari ko‘rishi shart.

Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organlari va ularning mansabdor shaxslariqonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11-bob. Murojaatlarning ko‘rib chiqilishini monitoring va nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish

77. Kon-geologiya vazirligining, uningquyi organlarining rahbarlari yoki ularning boshqa mansabdor shaxslari o‘z tarkibiy bo‘linmalari tomonidan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi, ularning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlash choralari ko‘radi.

78. Murojaat u qaysi rahbar yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan nazoratga olingan bo‘lsa, o‘sha shaxs tomonidan nazoratdan va ijrodan olinadi.

Oraliq javoblar berilgan va to‘liq ko‘rib chiqilmagan murojaatlar nazoratdan olinmaydi.

79. Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organlari va ularning mansabdor shaxslari kelib tushgan, ko‘rib chiqilgan, qanoatlantirilgan, qanoatlantirilmagan, ko‘rib chiqilmagan murojaatlarning, shuningdek boshqa ma‘lumotlarning statistik hisobini yuritadi.

Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklariva qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlatning manfaatlari buzilishini keltirib keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va bartaraf etishmaqsadida har chorakda murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilishni ta‘minlaydi.

Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijalariga ko‘ra murojaatlar bilan ishlash bo‘limi yoki tegishli tarkibiy bo‘linmalartomonidan murojaatlar bilan ishlashning umumiy ko‘rsatkichlari, murojaatlarda tez-tez ko‘tarilgan masalalar, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha aniqlangan asosiy kamchiliklar va qoidabuzarliklar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari buzilishinikeltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish maqsadida ko‘rilgan choralarak ettirilgan ma‘lumotnomalar (sharhlar) tuziladi hamda Kon-geologiya vazirligi rahbariyatiga vazirlikda, uning quyi organlaridamurojaatlarning ko‘rib chiqishning qonuniyligini ta‘minlash va samaradorligini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlatning manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish, qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi.

Har oy yakuni bo‘yicha davlat organlari, davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar va maxalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlar umumlashtirib, tahlil qilingan holda muhokama etish uchun kiritiladi.

Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijalariga ko‘ra tuzilgan ma‘lumotnomalar (sharhlar) Kon-geologiya vazirligining rasmiy veb-saytlarida e‘lon qilinadi.

80. Kon-geologiya vazirligi har oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga murojaatlar bilan ishlash tg‘risida hisobot taqdim etadi.

81. Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari O‘zbekiston Respublikasi Interaktiv Davlat xizmatlari yagona portalida, Kon-geologiya vazirligining rasmiy veb-saytida, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida har oyda e‘lon qilinishi mumkin,

82. Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tushgan murojaatlarni tahlil qilish yakunlari

bo'yicha Kon-geologiya vazirligining rasmiy veb-saytida tegishli statistika ma'lumotlarini har oyda e'lon qiladi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

83. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish, jismoni va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qilingan qarorning bajarilishini ta'minlamaganlik, jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi yoxud yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etish, jismoniy va yuridik shaxsni murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun ta'qib qilish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

84. Qonun va ushbu Nizom talablariga rioya etishni ta'minlash uchun javobgarlik Kon-geologiya vazirligi rahbariyatiga, unig quyi organlari rahbarlariga, murojaatlar bilan ishlash bo'limi va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarga yuklanadi.

85. Jismoniy va yuridik shaxsning arizasi, shikoyati ana shu murojaatlar bo'yicha qonunga xilof qarorlar qabul qilgan Kon-geologiya vazirligi, uningquyi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, ariza yoki shikoyat berish va uni ko'rib chiqish bilan bog'diq zararining o'rni, arizani, shikoyatni ko'rib chiqish uchun Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organining yoki ularning mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra joylarga borish munosabati bilan qilingan xarajatlarning hamda shu vaqt ichida yo'qotilgan ish haqining o'rni murojaat etuvchiga sud tartibida qoplanadi.


Sud tartibida ma'naviy ziyon ham kompensatsiya qilinishi mumkin.


Jismoniy va yuridik shaxsning arizasini yoxud shikoyatini ko'rib chiqishda qonun talablari buzilganligi munosabati bilan unga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish sifatida Kon-geologiya vazirligi, uning quyi organi tomonidan to'langan mablag'lar aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

86. Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, xuddi shuningdek, tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 29 dekabr 1061-sonli qaroriga asosan kiritilgan o'zgartirishlar bilan.

**Kon-geologiya vazirligida
jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari bilan ishlash
SXEMASI**





** Murojaatlar davlat organlariga yuqori davlat organlari yoki tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organlari orqali ham tushishi mumkin. Zarur hollarda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish yuqori davlat organi tomonidan nazoratga olinadi.*

(Old tomoni)

**JISMONIY VA YuRIDIK ShAXSLARNING
MUROJAATLARINI QAYD ETISH KARTOChKASI**

Tartib raqami:	Savol:
Murojaat qiluvchi:	
Manzili:	
Murojaat kelib tushgan sana:	Murojaat qiluvchilar soni:
Murojaatning shakli:	Varaqlar soni:
Qabul shakli:	Dublikat/takroriy
Murojaatning turi:	Oldingi murojaatning sanasi va raqami:
Nazorat turi:	
Murojaatning qisqacha mazmuni:	
Rezolutsiyani (topshiriqni) imzolagan rahbar:	
Rahbarning rezolutsiyasi (topshirig'i):	Bajarish muddati:
Tarkibiy bo'linma:	Ijrochi:

(Orqa tomoni)

Murojaatlarni ko'rib chiqishning holati		
Yuborilgan sana	Qayerga yuborilgan	Javob xatining raqami va sanasi
Muddati uzaytirilgan:	Kim tomonidan:	(imzo)
Javob xati kelgan sana:		
Ko'rib chiqish natijalarining qisqacha mazmuni:		
Nazoratdan olindi (kim tomonidan):	Bajaruvchining imzosi:	
Sana:	Bajarilgan sana:	
Murojaatni ko'rib chiqish muddati buzilganligi haqidagi belgi:		

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami",
2015 yil 6 aprel, 13-son, 154-modda

"O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami",
2015 yil, 3-son, 21-modda